



**O'ZBEKISTON SPORTCHILARINING SPORT SOHASIDA  
ERISHGAN YUTUQLARI**

*Eshboyev Shaxriyor Furqat o'g'li*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jismoniy madaniyat nazaryasi va  
metodikasi kafedrasи o'qituvchisi*

*E-mail: [eshboyevshaxriyor55@gmail.com](mailto:eshboyevshaxriyor55@gmail.com) Telefon: +998974387766*

*Mardiyev Samandar Shuxrat o'g'li*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti 1-kurs  
talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda sport infratuzilmasini rivojlantirish, sport maktablari va majmularini barpo etish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni sportga jalb qilish borasida amalgam shirilayotgan keng ko'lamlari islohotlar yoritilgan. Shuningdek, sport ta'lim tizimi, malakali kadrlar tayyorlash, xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sportchilarining yutuqlari hamda sport orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda davlat siyosatining sport sohasidagi ustuvor yo'nalishlari va yangi tashabbuslari, shuningdek, O'zbekiston sportining xalqaro maydonidagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Sport, jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya, olimpiada, sport musobaqalari

**Аннотация:** В статье рассматриваются реализуемые в Узбекистане масштабные реформы по развитию спортивной инфраструктуры, строительству спортивных школ и комплексов, привлечению к спорту всех слоев населения, особенно молодежи и женщин. Также уделяется внимание системе спортивного образования, подготовке квалифицированных кадров, достижениям узбекских спортсменов на международных соревнованиях, формированию здорового образа жизни посредством спорта. В



исследований проанализированы приоритеты и новые инициативы государственной политики в сфере спорта, а также роль узбекского спорта на международной арене.

**Ключевые слова:** Спорт, физическое воспитание, физическая подготовка, Олимпиада, спортивные соревнования.

**Abstract:** This article covers the large-scale reforms being implemented in Uzbekistan to develop sports infrastructure, establish sports schools and complexes, and attract all segments of the population, especially youth and women, to sports. Attention is also paid to the issues of the sports education system, training qualified personnel, the achievements of Uzbek athletes in international competitions, and the formation of a healthy lifestyle through sports. The study analyzes the priority areas of state policy in the field of sports and new initiatives, as well as the role of Uzbek sports in the international arena.

**Keywords:** Sports, physical education, physical education, Olympics, sports competitions

Bugungi kunda yurtimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish, sport maktablari va majmularini qurish, zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlash, aholining barcha qatlamlari, xususan, yoshlar va xotin-qizlarni sportga keng jalb etish borasida keng ko'lamlar ishlar amalga oshirilmoqda. Har yili sport musobaqlari, chempionatlar va xalqaro turnirlar o'tkazilib, bu jarayon sportchilarning xalqaro maydonda tajriba orttirishi va yuksak natijalarga erishishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim tizimi ham rivojlanib, yangi sport yo'nalishlari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. Xususan, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda hududiy sport institutlari bu borada katta ahamiyat kasb etmoqda. Sport sohasini rivojlantirish jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini



targ‘ib qilish, yosh avlodni jismoniy va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash, sport orqali xalqaro miqyosda O‘zbekistonning nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, sport sohasidagi islohotlar doimiy ravishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, bu borada yangi tashabbuslar ilgari surilmoqda. Osiyo va jahon championatlarida, Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida yuqori natijalarga erishib, Vatanimiz sha’nini munosib himoya qilishmoqda. O‘zbekiston sporti nafaqat individual yutuqlar, balki jamoaviy sport turlarida ham sezilarli rivojlanish ko‘rsatmoqda. Boks, dzyudo, erkin va yunonrum kurashi, yengil atletika, gimnastika, taekvondo, futbol va boshqa sport turlari bo‘yicha xalqaro maydonda yurtimiz sportchilari o‘z mahoratini namoyish etib kelmoqda. Shu bilan birga, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan sportni yanada rivojlantirish, ommaviyligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish borasida muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Xususan, qishloq va mahallalarda sport inshootlarini ko‘paytirish, xotin-qizlar va keksalar o‘rtasida sport bilan shug‘ullanish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha yangi dasturlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda bolalar va o‘smirlar sport maktablari, professional sport akademiyalari faoliyati yanada kuchaytirilib, sport tibbiyoti va ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yosh sportchilarni tayyorlash, ularning mahoratini oshirish va xalqaro tajribani o‘rganish maqsadida yetakchi murabbiylar jalg qilinmoqda. Sport nafaqat jismoniy tarbiya, balki milliy g‘urur va yuksak ma’naviyat ramzi hamdir. Shu bois, mamlakatimiz sport sohasi rivojiga qaratilgan e’tibor bardavom bo‘lib, yuksak natijalarga erishish yo‘lida sa’yu-harakatlar izchil davom ettirilmoqda. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni sportga keng jalg qilish, sport infratuzilmasini



rivojlantirish, xalqaro maydonda sportchilarimizning nufuzini oshirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalgalashuviga huquqiy asos bo‘ldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan asos solingan sport siyosati bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan izchil davom ettirilmoqda. Sport sohasi rivoji uchun qabul qilingan qonun va farmonlar, jumladan, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror va boshqa hujjatlar sportning ommalashuviga huquqiy asos bo‘ldi.

Bugungi kunda bolalar sporti, oliy sport va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha kompleks tizim yaratilgan. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” kabi musobaqalar yoshlarni sportga jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Yurtimiz sportchilari xalqaro musobaqalar, jahon championatlari, Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida yuksak natijalarga erishib, Vatanimiz nufuzini oshirib kelmoqda. Xususan, 2016-yilgi Rio-de-Janeyro Olimpiya o‘yinlarida 13 ta, Paralimpiya o‘yinlarida esa 31 ta medal qo‘lga kiritildi. Bugungi kunda ham sportchilarimiz turli yo‘nalishlarda yuqori natijalar ko‘rsatmoqda. Boks, dzyudo, taekvondo, yengil atletika, gimnastika va boshqa sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston sportchilari dunyoga tanilmoqda. Sport infratuzilmasi ham jadal rivojlanmoqda. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport majmualari, stadionlar, suzish havzalari, futbol akademiyalari barpo etilmoqda. Bolalar va o‘smyrlar sport maktablari, professional sport akademiyalari faoliyati kuchaytirilib, malakali murabbiylar va sport tibbiyoti mutaxassislari jalb qilinmoqda. Sportning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati ham katta. U nafaqat sog‘lom avlodni tarbiyalaydi, balki yoshlar o‘rtasida zararli odatlarning oldini oladi, ularni ma’naviy yetuk, intizomli va vatanparvar insonlar etib shakllantiradi. Shu boisdan, mamlakatimizda sportni yanada ommalashtirish, uni xalq orasida turmush tarziga aylantirish bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 noyabrdagi «jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlami tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ- 414-sonli qarori.
2. O'zbekistonda sportni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishning o'ziga xos-xususiyatlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent A. A. Tillyaxodjaev Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent J. P. Narziev Fan-sportga 2022/ison
3. [http://www.yoshlarittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport sohasini rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi](http://www.yoshlarittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport_sohasini_rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi)
4. <http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.
5. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi boshqaruv tuzilmalari Eshboyev Shaxriyor Furqat o'g'li vol. 4 no. 2 (2024): barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali
6. Jismoniy tarbiya darslarida talabalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'rni. Eshboyev Shaxriyor Furqat o'g'li  
<https://tadqiqotlar.uz/02/issue/view/82>